

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeveva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'zi shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурбаев Отабек Джурбаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeve Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING ROLI

Xudayarova Maftuna Shavkatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Maqolada aholining tadbirkorlik faolligini oshirish va bunda oilaviy tadbirkorlikning roli hamda bu sohada qator omillarning o'zaro ta'siri natijasida bir-birini to'ldiradigan bir butun tizimning vujudga kelishi sinergetik yondashuv asosida tadqiq qilingan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni huquqiy asoslar doirasida qo'llab-quvvatlash, ularning mahallalar tizimidagi rolini oshirish hamda hal etilishi zarur bo'lgan qator masalalarni oz sonli dominant yechimlarga keltirib olish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, aholining tadbirkorlik faolligi, oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish, metodologiya, "Sinergetika", sinergetik yondashuv, o'zini o'zi tashkil etish, bozor munosabatlari, uy xo'jaligi.

Аннотация: В статье исследуются повышение предпринимательской активности населения и уникальные характеристики семейного предпринимательства и создание целостной системы, дополняющие друг друга в результате взаимодействия ряда факторов в этой сфере на основе синергетического подхода. Также были предложены научно-практические рекомендации по поддержке семейного бизнеса в рамках правового поля, повышению его роли в системе соседства, а также доведению ряда вопросов, требующих несколько доминирующих решений.

Ключевые слова: предпринимательство, предпринимательская активность населения, семейное предпринимательство, оказание услуг, методология, "Синергетика", синергетический подход, самоорганизация, рыночные отношения, домашнее хозяйство.

Abstract: The article examines the increase of entrepreneurial activity of the population and the creation of a whole system that complements each other as a result of the interaction of a number of factors in this area and the specific characteristics of family entrepreneurship are researched based on a synergistic approach. Also, scientific and practical recommendations were offered to support family business within the framework of legal frameworks, to increase their role in the neighborhood system, and to bring a number of issues that need to be resolved to a small number of dominant solutions.

Key words: entrepreneurship, entrepreneurial activity of the population, family entrepreneurship, service provision, methodology, "Synergetics", synergetic approach, self-organization, market relations, household.

KIRISH

Bugungi kunda davlatimizda har bir oilada tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, ularning o'z-o'zini ish bilan bandligi va farovonligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Buning natijasida ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o'z yechimini topib, davlatning tartibga solish bo'yicha funksiyalarini ham sezilarli darajada qisqarilishiga olib keladi.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi bir necha yo'nalishlardan tarkib topgan bo'lsada, uni amalga oshirishning tezkor mexanizmlari va o'ziga xos yondashuvlarini qo'llash zarurati sezilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda omillar o'zaro ta'sirda va bog'liqlikda bo'lishi, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun o'zini o'zi moliyalashtirishi, kooperativ harakat qilishga intilayotgan subektlarning o'zaro hamkorligi, ishlab chiqarish yoki xizmat sohasida faoliyat yuritayotgan va faoliyat ko'llamini kengaytirish maqsadida bir-birini to'ldiradigan oilaviy korxonalar, birgalikda harakat qilish natijasida o'z-o'zini tashkillashtirib bir butun tizimning vujudga keltirishi kabi jarayonlar sohada o'zini o'zi tashkillashtirish imkoni mavjudligini ko'rsatadi.

Bunday murakkab tizimlarni chuqur o'rganish va tahlil kilish endilikda noan'anaviy metodologik konsepsiyalar, masalaga o'zgacha yondoshish tamoyillarini kashf etish zaruratini taqozo etmoqda. Boshqacha aytganda, o'rganilayotgan muammoga qanday yondashish yo'lini qo'llash metodologiyasi zarur.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sinergetika tushunchasi (yunoncha “synergetikos” – “hamkorlik”, “hamdo’stlik”, “birgalikda harakat”) ma’nolarini anglatadi¹. G. Xaken o’zining “Sinergetika” nomli kitobida bu terminni ma’nosining ikki jihatini ajratib ko’rsatadi. Birinchidan, birikishga, kooperativ harakat qilishga intilayotgan elementlarning o’zaro hamkorligi, birgalikda harakat qilish natijasida o’z-o’zini tashkillashtirib bir butun tizimning vujudga kelishi, ikkinchidan, turli fan sohalarida faoliyat yurituvchi olimlarning hamkorligi, birgalikdagi faoliyati tushuniladi². Ushbu tadqiqot ishida har ikkala yondashuv prinsiplariga asoslanib ish ko’riladi.

B. To’rayevning jamoaviy monografiyasida sinergetika tushunchasiga murakkab sistema sifatida qaralib, unga quyidagicha ta’rif beradi. Sinergetika – murakkablik, murakkab sistemalarning hamkorlikdagi o’zini-o’zi rivojlantirishi haqidagi fan³. Shuningdek, mualliflar “murakkablik” tushunchasini izohlab, murakkablikning murakkabligi uning ko’p komponentli ekanligida va undagi aloqadorliklarning ko’p tarmoqqa tarmoqlanib ketganligidadir deb ta’kidlaydi.

Sinergetikaga oid ilmiy tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, sinergetika atamasi dastlab fizik va biolog olimlar tadqiqotlarida kuzatilib ilmiy muomallarga kiritilgan. Bugungi kunda sinergetika tabiiy-ilmiy bilimlar chegarasidan chiqib, iqtisodiy bilimlar sohasiga ham shiddat bilan kirib bormoqda. Bunday qarashlar bozor iqtisodiyoti nazariyasini tushuntirishda o’zining yorqin ifodasini topmoqda.

Sinergetikani ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga tadbiq qilishda A. Smit keyinchalik K. Marks qarashlaridagi “kooperatsiya” (lotincha-hamkorlik, hamdo’stlik) tushunchasida ham o’z ifodasini topgan⁴. Bunday qarashlar iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi kooperatsiyalashuvga asoslanishi yoki sinergetika qonuniyatlariga bo’ysunishini namoyon etadi. Chunki, bozor munosabatlariga ko’ra, har bir xo’jalik yurituvchi subyekt o’z faoliyatini amalga oshirishi uchun o’zini o’zi moliyalashtirishi va ishlab chiqarishda hamkorlikni ta’minlashi zarur. Bu esa bozor iqtisodiyotining tabiiy sharti bo’lib, buning natijasida iqtisodiy rivojlanishning barqaror tizimi vujudga keladi.

Sinergetika g’oyalaridan turli iqtisodiy tizimlar kabi uy xo’jaligini tadqiq etish sohasida ham muvafaqiyatli qo’llab yuqori iqtisodiy samaraga erishish mumkin. Xususan, bu borada davlat resurslaridan foydalanilmagan holda iqtisodiy o’sish manbalarini aniqlashda turlicha yondashuvlar aniqlangan⁵. Bu asosiy g’oya uy xo’jaliklarining mol-mulkini ko’paytirish va sarmoya yig’ish bo’yicha imkoniyatlarini baholash asosida oila farovonligini belgilovchi omillarni o’z-o’zidan izlab topishga imkon beradi. Bu sinergetikaning o’zini o’zi tashkillashtirish xususiyatini namoyon etadi.

BMTning mashhur hujjatlarida qayd etilishicha, qashshoqlikka qarshi kurashish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda maqsadli moliyaviy yordam ko’rsatish katta ahamiyat kasb etadi⁶. Bu yordam ijtimoiy ishlab chiqarish infratuzilmasiga, oilaviy va kichik tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashga yo’naltirilgan bo’lishi lozimligi ta’kidlangan. Bu konsepsiyaning sinergetik mohiyati shuni ifoda etadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko’maklashuvchi barcha infratuzilma obyektlarining o’zaro birikishi, hamkorligi va birgalikdagi harakati natijasida ko’zlangan maqsadga erishilib, bir butun tizimni hosil qiladi. Bu esa sinergetikaning “hamkorlik” va “birgalikda harakat” prinsiplarining amaliy ahamiyatini ko’rsatadi.

F. Mamatov kichik biznesni qo’llab-quvvatlash tizimiga sinergetik yondoshib, unga quyidagicha izoh beradi: “sinergetikaning asosiy vazifasi “boshqarishsiz” boshqarishga erishishdir, ya’ni kichik rezonans harakatlar yordamida tizimni inson uchun qulay bo’lgan rivojlanish yo’liga olib chiqish, ijtimoiy tizimlarni tashkil etish yoki qayta tashkil etish zaruriyati bo’lmasada, ularni o’zini o’zi rivojlanish yo’nalishlariga olib chiqishdan iborat”⁷, deb ta’kidlaydi.

Iqtisodiyotning xizmat ko’rsatish sohasini sinergetik yondashuv asosida talqin qilishga bag’ishlangan ishlar ham diqqatga sazovor. Bu yo’nalishda O. Pardayevning fikricha sinergetika deganda, ma’lum bir faoliyatda yuqori ijobiy natijaga erishish maqsadida manfaatdor subyektlarning kuch va imkoniyatlarini birlashtirgan holda o’zaro hamkorlikdagi aniq tizimli harakat tushuniladi⁸.

S. Tashnazarovning mulohazalariga ko’ra, xizmatlar sohasida kechadigan jarayonlarda aks etadigan alohida qismlarning o’zaro ta’siri, o’zaro muvofiqlashuvi, tizimda yangi sifat ko’rsatkichlarining paydo bo’lishi, maz-

1 Bozorov D. Sinergetik paradigma. Monografiya. “Tafakkur” nashriyoti. – T. : 2010.

2 Xaken G. Sinergetika. – M. : Mir, 1980. 404 s.

3 To’rayev B. O., Ergasheva M. X., Raxmonov B. U., Mo’minova Z. O., Ochilov J. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo’lishi. Toshkent: “Navro’z” nashriyoti, 2017, 12–13 bet.

4 To’rayev B. O., Ergasheva M. X., Raxmonov B. U., Mo’minova Z. O., Ochilov J. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo’lishi. Toshkent: “Navro’z” nashriyoti, 2017, 12–13 bet.

5 Ernando De Soto. Kapital jumbog’i. Nega g’arbda g’alaba qozongan kapitalizm dunyoning boshqa joylarida mag’lubiyatga uchrayabti? M.: “Бизнес-Олимп”. 2001й.; 12 ключей к успеху в семейном бизнесе. http://www.openbusiness.ru/html_sovet/family/htm

6 Materialy seminaru po voprosam innovatsionnoy kultury. YuNESKO. Parij, 28fevral–1mart 2002-y.

7 Mamatov F. Kichik biznesni qo’llab-quvvatlash tizimini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2012.

8 Pardayev O. M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. -T. : “Fan va texnologiya”, 2017, 141 b.



kur iqtisodiy tizimni rivojlanishida o'z-o'zini tashkillashtirish mexanizmlarini yaxlit ravishda o'rganish sinergetik yondashuvni namoyon qiladi⁹.

Mazkur keltirib o'tilgan ishlarda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda o'zini o'zi tashkil etish, nochiziqlik, muvozanatsizlik, "xaos orqali tartib"ning paydo bo'lishi va bifurkatsiya o'zgarishlari kabi jarayonlarni o'rganish bilan bog'liq yangi dunyoqarashlar tadqiq etilgan. Lekin, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda sinergetika tamoyillarining namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiqot obyekti va predmeti sifatida qaralmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilaviy tadbirkorlikga sinergetik nuqtayi nazaridan yondashilib, uning o'zini o'zi tashkillashtirish xususiyatlarining mavjudligi va murakkab ochiq tizimga xosligi asoslandi. Shu bois o'rganilayotgan obyektga (tizim) sinergetika metodologiyasini qo'llash mumkin. "Voqelikda ro'y beruvchi keskin, xalokatli o'zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o'rganishda qo'llaniladigan metodologiyaga sinergetikani misol sifatida ko'rsatish mumkin"¹⁰. Bugungi kunda sinergetika metodologiyasi olamning chigal muammolarini tadqiq etishda, halokatli portlashlar, nochiziqli o'zgarish jarayonlarining mohiyatini tushunib yetishda, olamning vujudga kelishini ilmiy asoslashda kuchli evristik bilish quroli vazifasini o'tamoqda¹¹.

Muammolarni bartaraf etishga yangi ilm sohasi sifatidagi sinergetik yondashuv prinsiplari oilaviy tadbirkorlikni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etib, uning metodologik imkoniyatlaridan (ochiq tizim, nochiziqlik, bifurkatsiya, tartib va xaos, fraktal, muqobillik, o'zini o'zi tashkillashtirish, o'zini o'zi boshqarish va b.) keng foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Sinergetika metodlarini tadbirkorlik sohasida qo'llanishi uning metodologiyasi rivojiga katta hissa qo'shib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish jarayonining ham "sinergetikligi", ya'ni, o'zini o'zi tashkil etish xususiyati to'g'risidagi g'oyalarni isbotlaydi.

So'ngi yillarda aholining o'z-o'zini ish bilan band etishning samarali usuli sifatida oilaviy tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirishga va qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari mustaxkamlandi. Jumladan, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga bandlikka ko'maklashish jamg'armasi kreditlari hisobidn mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi va "Kasanachilik to'g'risida Nizom"lar qabul qilindi.

Ushbu hujjatlarda "kooperatsiya", "ko'maklashish", "shartnoma", "kafolat" va "o'zini o'zi boshqarish" tushunchalari ko'p-marta qo'llanilgan. Bu tushunchalar sinergetik yondashuv metodologiyasida qo'llaniladigan muhim kategoriyalar sifatida oilaviy tadbirkorlikni huquqiy qo'llab-quvvatlashning sinergetik manzarasini ifoda etib, u har tomonlama ko'maklashuvga moyil ochik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Sinergetika – o'zini o'zi boshqaruvchi tizimlarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini ma'lum bir yo'nalishda birlashtirishga ham xizmat qiladi. Yoki sinergetika murakkab tizimlarni, o'zini o'zi tashkil etish hodisalarini o'rganayotgan bilim sohalariga taluqli bo'lgan, universal metodologik paradigma bo'lib, o'rganilayotgan predmet va obyektga yagona fanlararo yondashuvni namoyon etadi. Uning bu jihatidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi tadqiqot natijalarini umumlashtirishda foydalanildi. Bu esa, "oilaviy tadbirkorlikning barqaror faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan ajratilayotgan kreditlar salmog'iga bog'liq" degan gipotezani asoslashda qo'l keldi. Shunday ekan, bu borada D. Murodovning¹² tadqiqotlariga asoslangan holda, moliyaviy ko'makga muhtoj bo'lgan oilaviy tadbirkorlarni uch guruhga ajratgan holda qo'llab-quvvatlash mumkin. Bular:

Birinchi guruhga, tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan oilalarga boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun eng kam foizli mikrokreditlarni (20–25 mln. so'mgacha)¹³ ajratish va huquqiy maslahat xizmatlarini ko'rsatish.

Ikkinchi guruh, asosan bozor talabiga muvofiq keluvchi yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan oilaviy tadbirkorlar bo'lib, ularga o'z faoliyatini boshlash uchun zarur bo'lgan bino va asbob-uskunalar ijarasi uchun bank kreditlarini ajratish.

Uchinchi guruhga esa, o'z faoliyatida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlay olgan, kredit ta'minoti uchun yetarli mol-mulkga ega bo'lgan oilaviy tadbirkorlarni iqtisodiyotning bir nechta sohasi hamda turli mamlakatlar bozorlarida diversifikatsiyalashuviga ko'maklashish lozim.

Bunday chora-tadbirlarning amalda qo'llanilishi, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining bank kreditlarini o'z vaqtida qaytarishiga va tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilib, milliy iqtisodiyot uchun yuqori ijtimoiy va iqtisodiy hamda sinergetik samarani ta'minlaydi.

9 Tashnazarov S. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishida sinergetik yondashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, -sentyabr-oktyabr, 2016-yil. (www.iqtisodiyot.uz).

10 <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/metodologiya-uz/>

11 O'sha manba;

12 Муродова Д. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mikrokreditlash mexanizmini takomillashtirish iynalishlari. Strategiya dal'nyeyshogo povysheniya konkurentosposobnosti natsional'noy ekonomiki: materialy IV-go Forumy ekonomistov (chast' II) / –Tashkent: PROON, IPMI, 2012.–198 c.


13 Samarqand viloyati Narpay tumani Yangiqo'rg'on QFYda o'tkazilgan so'rov natijalari, muallif tomonidan o'tkazildi.



Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimida "hamkorlik – birlik – hamjihatlik" tamoyillarini ifoda etuvchi klasterlarni tashkil etish, ular raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, oilaviy tadbirkorlik klasteri deganda, geografik jihatdan qulay va yaqin bo'lgan, ishlab chiqarish yoki xizmat sohasida faoliyat yuritayotgan va faoliyat ko'llamini kengaytirish maqsadida bir-birini to'ldiradigan oilaviy korxonalar guruhi tushuniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sinergetik yondashuv jihatidan oilaviy tadbirkorlikni nafaqat huquqiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki o'zini o'zi tashkil etish va rivojlantirishiga ham e'tibor beriladi. O'zini o'zi tashkil etish mexanizmlari sinergetikaning predmeti hisoblanadi. Buni oilaviy tadbirkorlikning o'zini o'zi tashkil etish xususiyatlarida ko'rish mumkin (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm: Oilaviy tadbirkorlikni o'zini o'zi tartiblovchi mexanizmining namoyon bo'lish shakllari¹⁴

Bizning fikrimizcha, oilaviy tadbirkorlikni sinergetik yondashuv asosida tadqiq qilish, uning quyidagi jihatlaridan kelib chiqadi:

- Oilaviy tadbirkorlik – o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi rivojlantirishga moyil ochiq tizim ekanligi;
- Oilaviy tadbirkorlik o'ziga xos tizim sifatida uning barcha tashkil etuvchi elementlari (kapitali, mulki, a'zolari) o'zaro ta'sirda va bog'liqlikda bo'lishi;
- "Oila", "mulk" va "tadbirkorlik" kategoriyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq alohida tushunchalar bo'lib, ularning muayan maqsad sari birikishi ("oila – mulk – tadbirkorlik") oilaviy tadbirkorlikning sinergetik tasnifini ifoda etadi;
- Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishida uning har bir ustuvorligi va afzalligi (vorislik, manfaatdorlik, raqobatbardoshlik, kapital tejamkorlik va b.) alohida ahamiyat kasb etishi va b.

14 Muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, sinergetika turli xil sohalarda murakkab tizimlarning rivojlanish va o'zini o'zi tashkil etish umumiy prinsirlarini aniqlashga qaratilgan yondashuv bo'lib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun mavjud bo'lgan o'ziga xos omillar, imkoniyatlar va qulayliklar bu tizimga sinergetik yondashuvni zarurat etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda oilaviy tadbirkorlikga tizim sifatida yondashilib, uning sinergetikaga xos xususiyatlari ochib berildi (1.3-jadvalga qarang).

1.3-jadval: Oilaviy tadbirkorlikning sinergetikaga xos xususiyatlari

Sinergetika tushunchalari	Oilaviy tadbirkorlikni tadqiq etishda qo'llanishi
"Ochiq tizim"	Oilaviy tadbirkorlik – ochiq tizim sifatida
"Tizim elementlari"	Oilaviy tadbirkorlik o'ziga xos tizim sifatida uning barcha tashkil etuvchi elementlari (kapitali, mulki, a'zolari) o'zaro ta'sirda va bog'liqlikda bo'lishi
"Tizim tasnifi"	"Oila – mulk – tadbirkorlik" kichik tizimlarining muayan maqsad sari birikishi oilaviy tadbirkorlikning tizim sifatidagi tasnifini ifoda etadi
"Bifurkatsiya nuqtalari"	Bifurkatsiya nuqtasi – oilaviy tadbirkorlikda miqdor va sifat o'zgarishlarga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llash orqali rivojlanishning yangi o'sish nuqtalarini aniqlashdir.
"Sinergetik yondashuv"	Sinergetika – murakkab tizimlarning rivojlanishi va o'zini o'zi tashkil etish prinsirlarini aniqlashga qaratilgan yondashuv bo'lib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy tadbirkorlikni rivojlanish qonuniyatlari va o'ziga xos omillari bu tizimga sinergetik yondashuvni zarurat etadi.
"Sinergetika metodologiyasi"	Oilaviy tadbirkorlik – murakkab ochiq sistemaga xosligi va uning o'z-o'zini tashkillashtirish xususiyatlarining mavjudligi bois unga sinergetika metodologiyasini qo'llash mumkin. Sinergetika metodologiyasi – oilaviy tadbirkorlik sohasidagi murakkab muammolarni tadqiq etish va bu jarayonlarning mohiyatini ilmiy asoslashda uslubiy qurol vazifasini o'taydi.
Sinergetik boshqarish instrumentlari	Kooperatsiya, ko'maklashish, hamkorlik, birgalikda harakat, shartnoma, kafolat – oilaviy tadbirkorlikni sinergetik boshqarish instrumentlaridir.
"Sinergetik samara"	Yaxlitlik o'z qismlari yig'indisidan katta ($1+1=3$). Yoki, tizim elementlarining alohida faoliyati natijasidan ularning birgalikda, hamjihatlikda ishlashi samarasi yuqori bo'ladi. Shu asnoda oilaviy tadbirkorlikda oila va uning kapital-mulki organik ravishda bog'liq harakatlanishi sinergetik samara beradi.

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga sinergetik yondashuv tamoyillarini qo'llash asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi sinergetik yondashuvni talab etib, uning samarali amal qilishi "kooperatsiya", "ko'maklashish", "hamkorlikda", "birgalikda", "hamjihatlikda harakat", "o'z-o'zini boshqarish", "o'z-o'zini tashkillashtirish" va "o'zaro ta'sir" kabi mexanizmlarga asoslanadi;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishida sinergetika metodologiyasining muhim xususiyati shundaki, u tashqi omillar ta'sirisiz o'zini o'zi tashkillashi asosida o'z imkoniyatlarini rivojlantirishning bifurkatsiya nuqtalarida keyingi taraqqiyoti uchun imkoniyatlarni qidirish zarurligini ko'rsatadi. Tizimning beqaror faoliyat ko'rsatishi natijasida uning yangi sifat bosqichiga o'tishiga imkon izlashi bifurkatsiya jarayonini namoyon etadi. O'rganilayotgan tizimda bu holat ko'p jihatdan moliyaviy omillarga bog'liq bo'lib, "oilaviy tadbirkorlik – moliya institutlari"ning o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yishni talab etadi. Buning natijasida tizim keyingi bifurkatsiya nuqtasigacha ilgarilanma rivojlanishini davom ettiradi;
- har bir oilada tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, ularning o'z-o'zini ish bilan bandligi va farovonligini ta'minlaydi. Buning natijasida ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o'z yechimini topib, davlatning tartibga solish bo'yicha funksiyalarini ham sezilarli darajada qisqarilishiga olib keladi. Bu jarayonlar sinergetikaning "o'z-o'zini tashkillashtirish" va "o'zaro ta'sir" xususiyatlarining amaliy ifodasini namoyon etadi;



- oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda ular manfaatini himoya qiluvchi uyushmalarga birlashishi va ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish, sinergetik samarani oshiradi. Bunga "Oilaviy korxonalar uyushmasi" va "Oilaviy korxonalar klasteri"ni tuzish orqali erishish mumkin¹⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bozorov D. Sinergetik paradigma. Monografiya. "Tafakkur" nashriyoti. – T. : 2010.
2. Xaken G. Sinergetika. – M. : Mir, 1980. 404 s.
3. To'rayev B. O., Ergasheva M. X., Raxmonov B. U., Mo'minova Z. O., Ochilov J. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2017, 12–13 bet.
4. Mamatov F. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2012.
5. Pardayev O. M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. -T. : "Fan va texnologiya", 2017, 141 b.
6. Tashnazarov S. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishida sinergetik yondashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5,-sentyabr-oktyabr, 2016-yil. (www.iqtisodiyot.uz).
7. Kuvandikov Sh. O. Oilaviy tadbirkorlik: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Monografiya. – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2020. – 176 bet.
8. Кувандиков, Ш. О. (2020). Синергетический подход к развитию семейного бизнеса. In социальная модернизация: российская специфика и некоторые уроки (pp. 357–374).
9. Kuvandikov, Sh., & Xudayarova, M. (2022). Qishloqda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning institutsional muhiti tarkibi. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 743–748.

15 Кувандиков Ш.О. Синергетический подход к развитию семейного бизнеса. Проблемы развития национальной экономики на современном этапе: материалы Международной научно-практической конференции. 25 ноября 2019 г. / отв. ред. А.А. Бурмистрова [и др.]; М-во науки и высшего обр. РФ, ФГБОУ ВО "Тамб. гос. ун-т им. Г.Р. Державина". – Тамбов: Издательский дом "Державинский", 2019. – 20–28 с

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.